

---

## SHAXS KAMOLOTIDA MUSIQANING AHAMIYATI

---

*Maqoladagi barcha damli sozlarning turlari, ijro imkoniyatlari hamda madaniy hayotimizdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** nay, pikkola, surnay, qo'shnay, bulamon, g'ajir nay, sibizg'a, karnay, chanqobuz.

### ВАЖНОСТЬ МУЗЫКИ В СОЗРЕВАНИИ ЛИЧНОСТИ

*В статье раскрыты, особенности разновидностей духовых национальных музыкальных инструментов, а так же их место в нашей народной жизни.*

**Ключевые слова:** най, пиккола, сурнай, куинай, буламон, гажир най, сибизга, карнай, чанкобуз.

### THE IMPORTANCE OF MUSIC IN THE MATURATION OF PERSONALITY

*The article deals with all types of national wind musical instruments, their performance opportunities, and their role in our cultural lives.*

**Keywords:** nay, picnic, tube, sunray, double nay, bulamon, bumpy flute, sibizga, trumpet, thirts.

Sharq mutafakkirlarining musiqiy risolalarida yozilishicha, eramizdan oldingi III-II asrlarda dastlab zarbli sozlar paydo bo'lgan bo'lsa keyinchalik xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, nay, hushtak, shaqildoq va chiltor (arfa) kabi damli cholg'ular yasalganligi ma'lum. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o'zining "Katta musiqa kitobi", Ibn Sinoning "Shifo kitobi", Ibn Zaylaning "Musiqaga oid to'liq kitob"i, Al-Xorazmiyning "Ilmlar kaliti", Safiuddin al-Urmaviyning "Sharafiya kitobi", Abdurahmon Jomiyning "Musiqa haqida risola", Darveshali Changiyning "Ilmi advor" risolalarida bu borada keng ma'lumot beriladi.

Damli musiqa asboblari tashqi ko'rinishi, katta-kichikligi va tovushining baland-pastligi bilan bir-biridan farq qiladi.


**Nay** o'rta asrda yashab ijod etgan olim Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Katta musiqa kitobi"ning ikkinchi bobida puflama musiqa asboblari, jumladan nay sozi haqida yozib uni qamishdan yasalganligi to'g'risida fikr bildiradi. O'zbekiston hududida, jumladan, Samarqand yaqinidagi Afrosiyob nomi bilan ataladigan qishloqda olimlar tomonidan arxeologik ishlari olib borilganda u yerdan fleyta (nay) chalib turgan musiqachining haykalchasi topilgan. O'rta asr miniatyuralarida esa nay xonaki xalq cholg'ulari ansambl tarkibidan o'rin olgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, fleyta, ya'ni nay uzoq asrlardan buyon avloddan-avlodga o'tib kelgan cholg'udir. U O'zbekiston hamda Tojikistonda juda keng tarqalgan. Nay buryat va mo'g'ullarda **limba**, Xitoyda **li** deb nomlangan. Bu cholg'ularning har biri ijro etiladigan asarlar xususiyatiga qarab yakka tartibda yoki ma'lum ansambl hamda orkestr tarkibida ishlataladi. Yana shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda mavjud damli cholg'u asboblarning ko'pchiligi boshqa Sharq xalqlarida ham uchraydi va ularning musiqasida ham katta o'rin egallaydi. Jumladan, nay, surnay, bulomon kabi cholg'ular tojik, qirg'iz, ozarbayjon, eron, afg'on, turkiya singari ko'pgina Sharq xalqlarida mavjud. Lekin ularni ishlatishda har bir milliy musiqada ma'lum darajada farq borligi bilinib turadi. Ba'zi hollarda esa, o'zbek va tojik xalqlarida ko'pgina cholg'u va ularning ishlatilishi deyarli bir xil ekanligini bilamiz. Hozir puflab chalinadigan an'anaviy sozlarning quyidagi turlari mavjud:

Nay qamish, yog'och, mis, bambuk singari matolardan yasaladi, shuning uchun ham qamish nay, yog'och nay, mis nay, g'arov nay deb nomlab kelingan. Tuzilishi trubochka shaklida bo'lib, diametri 20–30 mm, uzunligi esa 450–520 mm. Nayning ustki qismida 6 ta teshigi bor.(1-rasm)

Uning asosiy tovushqatori quyidagicha:



Notalari skripka kalitida yoziladi. Ovoz kengligi **lya** birinchi oktavadan **si** uchinchi oktavagacha.



Nayni baland aniq ohang bilan ijro etish faqat ijrochining puflash kuchiga bog'liq bo'ladi. Nay chalish paytida 6 ta barmoqdan, ya'ni 3 ta o'ng qo'l va 3 ta chap qo'l ko'rsatgich, o'rta, yon barmoqlari ishlatiladi. Uning ovozi kuchli va shu bilan birga ma'lum darajada mayindir. Nayning repertuari juda boy, barcha xalqlarning kuy, shuningdek kompozitorlik ijodiga mansub bo'lgan har xil asarlarni ijro etish mumkin. Unda ijro qilinadigan turli qochirim, nolish va boshqa musiqiy bezaklar esa, kuyga jon bag'ishlaydi. Nayning yoqimli, jozibali, sehrli tovushidan ilhomlangan jahon mumtoz adabiyotining eng buyuk namoyondalaridan Mavlono Jaloliddin Rumiy shunday yozadi:

Nayning ovoziga quloq tut  
U ne haqda g'am chekar, yig'lar.  
Mangu hijron, o'tmish alamin  
Unutolmay dillarni tirnar...

yoki ikkinchi bir she'rida

Tingla naydin, chun hikoyat aylagay,  
Ayriliqlardan shikoyat aylagay,

Men qamish erdim, kesib keltirdilar,  
Nolishimdan el hama o'rtandilar.

Siyna estarman to'la dardu firoq,  
Toki so'zlay sharhi dardu ishtyoq.

Davralar ko'rdim necha nolon bo'lib,  
Xushdilu dilpora birlan o'lturub.

Nay kabi zaxru taryoq qayda bor?  
Nay kabi damsozu mushtoq qayda bor?

Lablariga yetsam ul damsozni,  
Nay kabi men sochgay erdim rozni....

deb quydagicha sharhlab beradi. Birinchidan, nay odatda qamishdan yasaladi. Qamish kesilmasdan burun doimo nash'u namoda hayot kechiradi. Kesilgandan so'ng quriydi. Ikkinchidan, naydan oshiqona, lazzatbaxsh sadolar taraladi. Uchinchidan, nay nolasi tinglovchi ishqini ziyoda aylaydi. To'rtinchidan, nayning ovozi va sadosidan ko'p hollarda ajib bir hikoya, bir buyuk ishq mojarosi his qilinadi. Beshinchidan, nayning san'ati zohiri y jismda emas, balki uning ichidadir. Oltinchidan, nayning qomati to'g'ridir. Yettinchidan, nay qamishlikdan kesilgach, o'z olamidan judo bo'ladi, ya'ni g'aribdir. Sakkizinchchi, nayning ichi har narsadan xoli, bo'm-bo'sh, yolg'iz naychining ishqiga to'lgandir. To'qqizinchchi, nay kesilgandan so'ng o'z-o'zidan oshiqona sado chiqara olmaydi; usta bir naychining dami nafasiga ehtiyoji bor.

"Nay" istilohidan muddao, ya'ni zoti sharif Mavlono Jaloliddin Rumiy ko'zlagan maqsad orif va oqillik martabasiga noil bo'lgan insoni komildir. Bu komil insonning og'zidan hamisha oshiqona, lazzatbaxsh va serma'no so'zlar zuhur etadi.

“Nay” komil inson bu maqomda o‘z dardi yoxud o‘tkinchi dunyo dardi uchun fig‘onu faryod chekayotgani yo‘q. Buyuk “Masnaviy”ning ilk bayti bo‘lgan ushbu satrlarda Mavlono hazratlari arabcha “sam”ga taalluqli bo‘lgan tingla amri vositasida nay sadosiga diqqatni qaratmoqda.

Nayda asosan cho‘ziq, og‘ir kuylar va ularga xos uzun notalar nafas uzmay chalinadigan katta melodik tuzilmalar, xullas lirik xarakterli musiqaviy asarlar ko‘proq ijro etiladi. Bu ham cholg‘uning ijro etish imkoniyatlari va xususiyat bilan bog‘liqidir.

Nayda doim ijro etiladigan kuylarning ayrimida esa mana shu cholg‘uning xususiyatlari mujassamlashgan. Bunday kuylar ijrochining nay chalishdagi mohirlik darajasini ham oydinlashtirib beradi. Masalan “Nay yallasi”, “Yovvoyi Chorgoh” yoki “Cho‘li Iroq” kuylarini ko‘rsatish mumkin. Bu kuylarni mohirona ijro etgan hamda respublikamizda nay sozini yuqori pog‘onalarda olib chiqishda o‘zining ijrochilik san’ati bilan mashhur bo‘lgan naychilar Abduqodir Ismoilov (1888–1951), Ayub Qodirov (1918–1963), Mirza Tohirov, M.Muhammedov, Saidjon Kalonov, Abdulhaq Abdurashidovni xalqimiz hurmat bilan e’zozlaydi.

Nayda ijro etish murakkab bo‘lganligi tufayli ijrochidan katta malaka va mahorat talab etiladiki, unga maxsus o‘quv tayyorgarlik ko‘rish yoki biror mohir ijrochiga shogird tushish natijasidagina erishish mumkin. Shuning uchun ham nay asosan usta ko‘rgan yoki maxsus o‘quv yurtini bitirgan, o‘tkir mahoratlari va musiqani chuqur his eta oladigan nozik qalb sohibi bo‘lgan sozandagina tinglovchilarga manzur bo‘larli qilib musiqani ijro eta oladi. Undan turli ansambl va orkestrda hamda yakkanavozlik shaklida foydalaniлади.

**Pikkola nay** yangi ixtiro qilingan soz bo‘lib, orkestrda yuqori registr notalarini chalishga mo‘ljallangan. Notalari skripka kalitida yozilib, oktava baland eshitiladi.

Uning asosiy tovushqatori quyidagicha:



Diapazoni (ovozi kengligi) **re** birinchi oktava tovushidan **lya** uchinchi oktava tovushigacha. (2-rasm)

U texnik asbob bo‘lib orkestr ijrosida hamda yakkasoz sifatida ishlataladi.

**Surnay** o‘zbek va tojik xalqlari musiqa madaniyatidagi o‘rni va repertuarining boyligi bilan barcha damli cholg‘ulardan o‘zining chiroyli, kuchli va jarangdor ovozi orqali keskin ajralib turadigan sozdir. U tut yoki o‘rik yog‘ochidan o‘yib yasaladi, uzunligi 450 mmdan 550 mmgacha, ustki tomonida chap va o‘ng qo‘l barmoqlari bilan yopiladigan yettita o‘yib olingen teshik bor. Sakkizinch teshik esa, pastki tomonining yuqori qismida bo‘lib, u chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan berkitiladi. Surnayning bosh qismiga yog‘ochdan yasalgan kichik mushtuk kiydiriladi. Bu mushtukka metalldan tayyorlangan qisqa mushtukcha joylashtiriladi va unga sim ulanadi. Metall mushtukchaning usti va ostidan maxsus moslama kiydiriladi va lab bilan qisiladi. Surnayning ovoz hajmi kichik oktavadagi **lya** tovushidan ikkinchi oktavadagining **mi** tovushigacha. (3-rasm) Notalar skripka kalitida yoziladi:



Surnayning ovozi juda ham uzoqqa ketadigan darajada kuchli bo‘lganligi sababli qadim zamonlardan boshlab u karnay, nog‘ora va doyra bilan ommaviylashgan maxsus ansamblini tashkil qilib, ochiq havo (hovli)da, ko‘cha–ko‘yda, dala–maydonlarda o‘tkaziladigan umumxalq bayrami tantanalari, sayillar, to‘y–tomoshalarda chalinishi keng rasm bo‘lgan. Shu bilan birga, surnayda

**232** yakkanavoz sifatida ham doyra jo'rligida juda murakkab va jozibali xalq va maqom yo'lidagi kuylar ijro etib kelingan.

Surnayda ijro etish xususiyatlari boshqa cholg'u asboblaridan shu darajada ajralib turadiki, ko'p yillar davomida ijro etib kelingan boshqa cholg'ularning kuylari ham xuddi shu surnaydan boshqa cholg'uda chalinmaydiganday tuyuladi. Masalan: "Surnay navosi" yoki "Surnay iroqi" kuylari boshqa musiqa asboblarida me'yoriga yetkazib chalinganda ham surnay ijrosi sifatida qabul qilinadi.

Surnayda barcha qochirim, nola va boshqa barcha musiqa bezaklari shuningdek keng hajmdagi intervallarni ham chalish imkoniyati bor.

**Qo'shnay** asosan Farg'ona – Toshkent vohalari hamda Xorazm viloyatida ko'p ishlatiladigan cholg'u asbobdir. U ikkita qamish naychadan yasalgan bo'lib, ularga tovush chiqarish uchun til o'rnatiladi. Chalish uchun har ikkita naychaga barobar puflanadi. Uning uzunligi 240 – 260 mm, diametri (aylanasi) esa 14–16 mm bo'lib, ingichka ip bilan bog'langan bo'ladi. Har ikki naychada yondash joylashgan yettita teshik bo'lib, chap tomondagisi uchta, o'ng tomondagisi esa to'rtta barmoq bilan bosib chalinadi. O'rta tovush registriga ega (4-rasm). Notalari skripka kalitida yoziladi. Ovoz hajmi birinchi oktavadagi **re** tovushidan ikkinchi oktava **sol** tovushigacha:



Qo'shnayda chalinadigan kuylar ham asosan cho'ziq va vazmin bo'ladi. Shu munosabat bilan ijrochi nafas uzmay chalish uslubini ham juda puxta o'zlashtirgan bo'lishi shart, uning repertuarida har xil xarakter va janrga ega bo'lgan musiqa asarlari mavjud. Qo'shnayda an'anaviy musiqamizga xos bo'lgan musiqiy qochirim (bezak)larni ijro etish juda qulaydir. Bu cholg'u hozirgi vaqtida o'zining chiroyli tovushi, ijrochilik – texnik xususiyatlari bilan respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha ansambl va orkestrda yetakchi cholg'u asbobi sifatida ishlatilmoqda.

**Bulomon** qadimiy soz bo'lib Xorazm vohasida ko'p ishlatiladigan cholg'u asbobdir. O'rik yoki tut yog'ochidan yasalib ichi boshidan oxirigacha o'yilgan. Yuqori ingichka qismiga esa o'rnashtirilgan "tili" qamishdan ishlangan. Ko'rinishi surnayga o'xshaydi, ammo undan bir oz kichik. Unga sakkizta teshik bo'lib, yettitasi ustki qismida va bittasi orqa tomonda joylashgan. Orqa tomonidagi teshik sozning yuqori qismida bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan yopiladi.

Bulomonning tovushqatori diatonik shaklda bo'lib quyidagicha tuzilgan:



Ovozining kengligi **re** birinchi oktavadan **re** uchinchi oktava tovushigacha. Notasi skripka kalitida yoziladi va bir oktava past ovoz beradi.

**yozilishi**

**eshitilishi**



Bulomonda ijro qilish imkoniyatining mavjudligi, diapazonining kattaligi tufayli u boy repertuarga ega. Unga oddiy Xorazm xalq kuylari bilan bir qatorda maqomlarning cholg'u qismi hamda boshqa murakkab janrdagi musiqalardan namunalar ijro etish mumkin. Ijrodagi boy imkoniyati tufayli u turli ansambl va orkestrlar tarkibida doimiy ishtirot etadigan asosiy cholg'u asbobdir.

**G‘ajir nay** oddiygina cholg‘u asbob bo‘lib, Yevropa cholg‘ularidan fleyta soziga o‘xshaydi. U biroz egilgan, eni 10–12 mm, uzunligi esa 280–300 mm, 6 ta tovushdan tarkib topgan seksta intervaliga teng quyidagi diatonik tovushqatorlarga ega:



Ovozining kengligi **mi** ikkinchi oktavadan **do** uchinchi oktavagacha:



Chorvador cho‘ponlarning doimiy hamrohi bo‘lgan g‘ajir nay bizning davrimizga yetib kelgan. Hozir ham respublikamizning cho‘l zonalari bo‘lgan Navoiy viloyatining Nurato, Konimex, Tomdi tumanlari, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining yaylov hamda qishloqlarida uning ovozi baralla eshitilib turadi. Bu nayni cho‘ponlar doimiy ishlatgani uchun unga cho‘pon nayi ham deb nom bergenlar. Nima uchun cho‘pon nayi deb ataydilar degan savol ham bo‘lishi mumkin. Cho‘pon nayi deb atalishiga asosiy sabab cho‘ponlar nay ijrosi orqali qo‘ylarni bir otardan ikkinchi bir otarga ko‘chirish jarayonida yoki ularni sug‘orish paytida ijro etgan. Natijada qo‘ylar nay tovushi asosida cho‘ponlar topshirig‘ini bajarishga odatlangan. Cho‘pon nayining ikki xili uchraydi. Biri mis yoki yog‘ochdan yasalsa, ikkinchisi yaylov va tog‘larda yashaydigan burgutsimon g‘ajirning ikki qanoti suyagidan yasaladi.

**Sibizg‘a (sibiziq)** respublikamizning, jumladan Surxondaryo va Qashqadaryo hamda Navoiy viloyatining qishloq va yaylovlarida keng tarqalgan qadimiy damli cholg‘ularning oddiy turi. Bu cholg‘uni ijrochilarining o‘zлari oddiygina qamishdan yasaydi, eni 5 – 6 mm bo‘lib, uzunligi 40–150 mm. Sibizg‘a bolalar o‘yinchog‘i sifatida ham foydalaniladi. Lekin o‘ziga xos imkoniyati borligi bilan mohir sozanda–ijrochi tomonidan chalinganda ajoyib ta’sirchan musiqa soziga aylanadi. Ovoz hajmi **fa** birinchi oktavadan **re** diez ikkinchi oktavagacha.



Sibizg‘a tovush qatorining torligi, ijro qilish imkoniyatining cheklanganligiga qaramay unda turlicha kuyni chalish mumkin. Lekin tasviriy vositalari, xususiyati va tuzilishi jihatdan bu kuylar boshqa cholg‘ularda ijro etilganda tubdan ajralib turadi. Sibizg‘ada kichik hajmdagi melodik tuzilmalar juda ham murakkab musiqli bezaklar bilan boyitilgan holda beriladi. Mana shu bezaklar har bir cholg‘uning o‘ziga xos tembri bilan birgalikda kuyga nozik badiiy ko‘rk va chuqr hissiy ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Sibizg‘aning tuzilishi hamda ijro qilish imkoniyatining o‘zgachaligi esa shu cholg‘u repertuari xususiyatiga ta’sir etgan albatta.

Agar g‘ajir nayda chalinadigan kuylar deyarli mayin, yurakni qitiqplaydigan, ta’sirchan bo‘lsa, sibizg‘aning ovozi juda yoqimli, jarangdor bo‘lib, uni eshitgan kishi ruhan tetiklashadi. Shuning uchun sibizg‘ada ijro etiladigan ko‘pgina asarlar jo‘shqin xarakterdagи sho‘xroq kuylardan iboratdir. Xuddi shunday farqni nay bilan surnay va bulomon repertuarida ham ko‘rishimiz mumkin.

**Karnay** qadimiy musiqa asboblari orasida eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sozdir. Uning uzunligi ikki metr atrofida bo‘lib, mis yoki nuqrasimon tunukadan naycha shaklida yasaladi. Og‘zi kattalashib boruvchi konussimon shaklga ega, puflama tomonida mushtuk o‘rnatalgan bo‘ladi. U bir–biriga kiritiladigan uch bo‘lakdan iborat. Tik turib chalinadi, ovozi yo‘g‘on va kuchli.

Karnay tuzilishi va ijro imkoniyatining torligi (faqat bir oktava oralig‘idagi to‘rt yoki besh tovush) tufayli kuy chaladigan maxsus cholg‘u emas. U faqat doyra, nog‘ora usullariga jo‘r bo‘la oladigan, ritmik tuzilmali ma’lum tovushlarnigina bera oladigan musiqa asbobi sifatida foydalaniladi. Lekin karnay tovushlari cholg‘uga xos boy tembri qobig‘ida ancha salmoqli tus oladi. Ana shu xususiyati tufayli ham karnay asrlar davomida (xabar) beruvchi musiqa asbobi sifatida keng qo‘llanib kelingan.

Karnay (surnay va nog'ora bilan birgalikda) turli tomosha, sayl va tantanalarining doimiy ishtirokchisi, ularga ma'lum an'anaviy tus beradigan cholg'u va shu an'analarning ajralmas bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. O'tgan asrlarda xonning saroydan chiqib ketishi yoki qaytib kelayotganini xabar qilish, amir sarbozlarining mashqlarida hamda harbiy yurishlarda shartli signallar beruvchi cholg'u sifatida ishlataligancha.

Ma'lumki, hozirda karnay, doyra, nog'ora va surnay jo'rligi katta ommaviy tantanali marosimlarning jarchisi sifatida keng qo'llanilmoqda.

**Changovuz** yurakni to'lqinlantruvchi tovushi bilan juda ham past eshitilar – eshitilmas ovozga ega. U 8–10 sm uzunlikdagi temirdan yasalgan aylanma ramka oralig'ida egilgan sakkiz santimetrcha keladigan yupqa po'lat til o'rnatilib tilchaning uchi egilgan. U chap qo'l bilan ushlanib tish bilan qisib, o'ng qo'lning ko'rsatkich hamda kichkina barmoqlari bilan chertilganda bir necha xil tovush chiqaruvchi cholg'u asbobdir. Chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirib to'lqinlantriladi. Tovushning baland-pastligi chanqovuz tilchasining uzunligi va qalinligiga bog'liq. Chanqovuz azaldan xotin-qizlarning o'zaro uchrashuvlari yoki qizlar yig'ilishlarida ijro qilib kelingan. Bunda chanqovuz chala oladigan xotin-qizlar yakka yoki birgalashib chalgan.

Chanqovuzda chalinadigan kuylar odatda hech qanday marosim bilan bog'liq bo'lмаган, у о'з тузилиши жиҳатдан ham boshqa cholg'ulardan deyarli ajralib turadi. Chanqovuzda chalingan kuylarni boshqa cholg'ularda ijro etib bo'lmaydi, chunki ular faqat chanqovuzgagina xos bo'lган куяларидир. Chanqovuz kuylari o'z tuzilishi va ayrim tasviriy xususiyati bilan sibizg'a, g'ajir nay ohanglarini eslatadi. Shuni ta'kidlash joizki, chanqovuz Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarining musiqa cholg'ulari orasida alohida o'ringa ega.

Demak, puflab chalinadigan har bir cholg'u asbobining o'rni, ishlatalishi va repertuarining boyligi birinchi navbatda uning ijrodagi imkoniyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ayrim cholg'ur faqat ma'lum janrlar doirasida cheklangan bo'ladi yoki ularning ijrodagi yetakchilaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, damli cholg'ularimiz ham qadimiyligi bo'lib, xalqimizning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Shuning uchun bu cholg'ularda ijrochilik an'analari avloddan-avlodga o'tib sayqallanib rivojlanmoqda. Ma'naviy qadriyatlarimizdan yosh avlod ham bahramand bo'ladi degan umiddamiz.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent: "O'qituvchi", 1996. - 176 bet.
2. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. (Nashrga tayyorlovchi Karimbek Hasan) Toshkent: "Fan", 1993. - 56 bet.
3. Petrosyans A. Instrumentovedenie (Uzbekskaya narodnie instrumenti). Toshkent: "O'qituvchi", 1980. – 100 str.
4. O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. (Tuzuvchilar T.Solomonova, R.Abdullayev) Toshkent: "O'qituvchi", 1983. - 208 bet.